

ILMIY ISHLARNING TURLARI: ILMIY-TADQIQIY, ILMIY- OMMABOP VA ILMIY-USLUBIY ISHLAR

Muminova Diyora Murodullayevna

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti Ingliz tili 2 fakulteti talabalari

Bektemirova Muxlisa Saydulla qizi

Ahmedova Oydinbonu Murodovna

Annotatsiya: *Maqolada ilmiy ish va uning turlari haqida soʻz yuritilgan. Ilmiy ish qay tartibda yozilishi, qanday tartibda rasmiylashtirilishi kerakligi haqida maʼlumot keltirilgan. Ushbu maqola ilmiy ishni endi boshlayotgan talabalar uchun moʻljallangan boʻlib, ilmiy ishni boshlashda eng asosiysi nimalarga eʼtibor qaratish lozimligi va maqola, tezislarni yozish tartib - qoidalari haqida soʻz yuritilgan. Ilmiy ish aslida qanday yozilishi (yoki boʻlishi) haqidagi bir necha fikrlar jamlangan.*

Kalit soʻzlar: *Tezis, maqola, monografiya, ocherk, referat, avtoreferat, dissertatsiya, risola, oʻquv qoʻllanma.*

Tadqiqotchi kuzatuv, xulosa va ilmda topgan yangiligini yozayotgan ishida ifodalaydi. Bu ilmiy ish turlari orqali ilm ahliga taqdim etiladi. Ilmiy ishlarni taqdim etishda har bir davlat, universitet, ilmiy doira yoki tadqiqot markazining oʻz talabi, qonun-qoidasi bor. Masalan, Oʻzbekistonda «Ilmiy darajalar berish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarorda falsafa doktori, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yoziladigan dissertatsiyaga oʻndan ortiq talab qoʻyilgan. Sinchiklab oʻqilsa, hammasi ayni muddao — puxta oʻylangan, bari risoladagidek... Lekin amalda-chi? Hamma ham talab-qoidaga rioya qilyaptimi? Yozilayotgan ilmiy ishlar qanchalik sifatli? Oʻzbek ilm-fani uchun nechogʻlik yangilik boʻlmoqda? Yildan yilga tadqiqotchi, izlanuvchilar soni oshyaptiyu, nega natijasi bilinmaydi? Nima uchun ayrim ishlar arxivlardagina turishga yarayapti?

Ilmiy ishdan maqsad ilm boʻlishi kerak. Haqiqiy ilmgina rostdan ham qadrli, odamzodga foydalidir. Ilmiy ish qilish jarayoni bu bir hodisani ilmiy jihatdan tushuntirish uchun u xususida uzoq muddat oʻylanish va izlanish degani. «Ilm – igna bilan quduq qazishdir» degan oʻxshatish jarayonning mohiyatini juda yaxshi ochadi, chunki ilmiy ish qilish jarayonida izlanuvchi hamma koʻrib turgan hodisaning hech kim koʻrmagan, koʻrolmaydigan tafsilotlarini aniqlaydi. Ilmiy ish biror yangilik (kichik boʻlsa-da) avvalgi olimlarnikidan farqlanishi va muhokama, xulosa qismida qilingan yangi metodning ijtimoiy soha (masalan, qishloq xoʻjaligi, energetika va boshqalar) ga ahamiyati qandayligi yozilishi kerak.

Ilmiy tadqiqot boshlagan har bir tadqiqotchi eng avvalo ikki ishni bajarib olishi shart. Birinchisi – oʻzi tanlagan mavzu yoki soha boʻyicha undan avval ayni shu yoʻnalishda qilingan barcha ishlar bilan tanishib chiqish; ikkinchisi – ishning asosiy oʻq skeleti boʻlgan tadqiqot gipotezalarini shakllantirib olishi va eng asosiysi ilmiy ish

nima ekanligini, ilmiy ishning qaysi turida ishlamoqchi (maqola, tezis yoki dissertatsiya v.h.k.) aniqlab olishi, ularning yozilish tartibi va qonun qoidalarini mukammal bilishi lozim.

Ilmiy ishlar o'rganiladigan obyektidan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqiy, ilmiy-ommabop va ilmiy-uslubiy turlarga bo'linadi. Ular hajmi jihatidan kichik (masalan, annotatsiya, maqola) yoki katta (masalan, dissertatsiya, monografiya) bo'lishi, tuzilmaviy tarkibi ham turlicha bo'lishi mumkin. Biroq ularning barchasiga xos umumiy xususiyat bu ularning ilmiy uslubda yozilishi, ularda ilmiy-tadqiqiy faoliyat natijasi bayon etilishidir.

Maqola eng kichik ilmiy asardir, biroq u ham hajmi jihatidan yirik, 20, 30, 40 bet, ba'zida undan ko'p sahifadan iborat bo'lishi ham mumkin. Mazmun jihatidan esa zamonaviy tilshunoslikning ko'plab yirik muammolari aynan maqolalarda ifodalanadi. Maqolalar ikki xil bo'ladi: ilmiy maqolalar va ilmiy-ommabop maqolalar.

Ilmiy maqolalar maxsus to'plamlarda yoki jurnallarda chop etiladi, ularda olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijalari bayon etiladi, kashfiyotlar ilm ahliga ma'lum qilinadi. Ilmiy maqolalar muayyan fan sohasiga taalluqli bo'lib, ularda sohaviy atamalar, terminlar, formulalar, raqamlar, ilmiy adabiyotlarga havolalar ko'p ishlatiladi. Ilmiy maqolalar ham o'z ichida **ilmiy-nazariy** va **ilmiy-metodik maqolalar** turlariga bo'linadi. Har bir ilmiy maqolada muayyan muammo o'rtaga tashlangan bo'lishi va uni bartaraf qilish yo'llari, qaysi ilmiy manbalardan foydalanilganligi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.¹

Ilmiy-ommabop maqolalar esa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy masalalarda yoziladi va ommabop jurnallar, gazetalarda chop etiladi. Ularning **bosh maqola, ocherk, xabar, feleton, reklama** kabi turlari bor. Ilmiy ommabop maqolalarning eng xarakterli xususiyati – ommaga ta'sir qilish, xalqni o'ziga jalb qilishdir, shu bois ular ilmiy-ommabop uslubda yoziladi.

Annotasiya (sharh) - ilmiy maqola yoki ilmiy asar matnining maksimal darajadagi qisqartirilgan (5-6 ta gapdan iborat) bayonidir. Odatda, bu umumlashtirish, konseptual emas, sanab o'tish xarakteriga ega. Barcha axborot janrlari ichida annotasiya eng obyektividir. Annotasiyada odatda, ish qanday mavzuga bag'ishlanganligi tadqiqotning qanday uslublaridan foydalanganligi, buning uchun qanday til materiallari jalb etilganligi va tadqiqotning adresati kim ekanligi ko'rsatiladi. Ayrim hollarda annotatsiya bir necha tilda bayon etilishi ham mumkin.

Tezis - ilmiy maqola yoki konferensiyalar uchun taqdim qilinadigan ilmiy ma'ruzaning qisqa asosiy mazmuni aks ettirilgan ilmiy ish turi bo'lib, uning hajmi annotatsiyadan kattaroq, biroq ilmiy maqoladan kichik bo'ladi (taxminan 1 betdan 3-4 betgacha). Tezislari, odatda, nashr va konferensiya talablariga asosida bir necha

¹ Sodiqova Sh. Ilmiy ish asoslari. O'quv qo'llanma T., 2016.

tillarda beriladi. Uni ilmiy asarga beriladigan tanqidiy baho, tanqidiy talqin aks etgan taqriz bilan chalkashtirmaslik kerak.

Taqriz – tadqiqot ishi, darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarga beriladigan taqidiy baho bo‘lib, unda mazkur ishning dolzarbligi va zarurati, ishning mazmuni me‘yoriy hujjatlar talablariga mosligi, muallif erishgan yutuqlar, qo‘llangan yangi metodlar va texnologiyalar, ishning rasmiylashtirilishi va savodxonlik darajasi tahlil qilinadi, Bunda, albatta, taqrizchi shu soha mutaxassisi bo‘lishi va sub‘ektivlikka yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Referat – mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllaridan biri sanaladi. SHu boisdan, konspektidan farqli o‘laroq, referat yangi, muallif matn sanaladi. Ushbu holatda yangilik yangicha taqdim etish, materiallarni tartiblashtirish, har xil nuqtai nazarlarni o‘zaro solishtirishda alohida mualliflik yondashuvi tushuniladi. SHunday qilib, referatlashtirish o‘zida bir yoki bir qancha manbalarni turlashtirish, umumlashtirish, tahlil va sintez qilishga asoslanib ma‘lum bir savolni ifoda etishni mujassam etadi. Demak, referat – har xil nuqtai nazarlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadigan bir yoki bir qancha manbalarni o‘zida mujassam etadigan g‘oyalarning qisqacha yozma ko‘rinishdagi taqdimotidir.

Ilmiy ma‘ruza konferensiya, simpozium, seminarlarga taqdim etiladigan ilmiy asardir. Ilmiy ma‘ruzada tadqiqotchi tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida asoslangan ilmiy-nazariy xulosalar, kashf etilgan ilmiy yangiliklar, tajriba-sinov natijalari bayon etiladi. Odatda, u o‘qiladigan og‘zaki variant va olimlarning mazkur uchrashuvi materiallarini o‘z ichiga olgan maxsus to‘plamda nashr etiladigan yozma variantga ega. Ko‘p hollarda to‘plamlarga ilmiy ma‘ruzaning tezisi beriladi, ma‘ruzaning o‘zi esa slaydlar to‘plamidan iborat bo‘ladi.

Risola hajmi bo‘yicha u kichik kitob va yirik maqola o‘rtasidagi asar bo‘lib, u alohida nashr ko‘rinishida chop etiladi. Risola keng ommaga mo‘ljallangani uchun ilmiy ommabop asarlar sirasiga kiradi, shuning uchun unda murakkab ilmiy tushunchalar, terminlar kamroq qo‘llanadi.

Monografiya hajmi bo‘yicha eng yirik hisoblanadigan ilmiy-tadqiqiy asar bo‘lib, bir muallif yoki tadqiqotchilar guruhi tomonidan biron-bir muammoni fundamental tarzda tadqiq etilishi jarayonining natijasidir. U alohida kitob tarzida nashr etiladi. Monografik turdagi tadqiqotlar qatoriga o‘rganilayotgan muammo xarakteri va batafsilligi bo‘yicha fan nomzodi yoki doktori ilmiy darajasiga talabgorlikka yozilgan dissertasiyani ham kiritish mumkin.²

² Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: Akademnashr, 2010.

Dissertatsiya muayyan fan yo‘nalishida olib borilgan tugallangan tadqiqot ishi hisoblanadi. Dissertatsiyalar tadqiqot ko‘lami va bajarilgan ish natijasi ko‘lamiga ko‘ra muayyan fan sohasi doktori ilmiy darajasini beruvchi DfS, falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PdJ, ilmiy darajasini beruvchi magistrlik dissertatsiyalari turlariga bo‘linadi. Monografiyalardan farqli o‘laroq na nomzodlik, na doktorlik dissertatsiyasi maxsus kitob sifatida nashr etilmaydi, u faqatgina qo‘lyozma, ya‘ni kompyuterda terilgan variantdagina taqdim etiladi. Ammo har bir dissertatsiya asosida uning muallifi alohida matnni yaratadi. Uning hajmi kichik broshyuraga teng bo‘ladi. Bu matn dissertatsiyaning avtoreferati deb nomlanib, ma‘lum sxema bo‘yicha dissertatsiya mazmunining qisqa bayonidir. Dissertatsiyaning to‘liq matni bilan dissertatsiya himoyasi bo‘layotgan muassasaning kutubxonasi, milliy kutubxona va ba‘zi bir boshqa kutubxonalarda tanishish mumkin.

Avtoreferatlar dissertatsiyaning himoyasidan oldin mazkur muammo bo‘yicha adabiyotlar mavjud bo‘lgan barcha kutubxonalarga hamda o‘xshash yoki yaqin muammolar bilan shug‘ullanadigan muassasalarning kutubxonalariga yuboriladi. Bundan tashqari dissertatsiya tadqiqoti mazmunining eng ahamiyatli aspektlari odatda, mazkur muallifning joriy nashrlari (maqola, ma‘ruza)da o‘z aksini topadi.

Ilmiy-uslubiy ishlar ta‘lim jarayonining o‘quv-uslubiy ta‘minotini tashkil etuvchi o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy va uslubiy-metodik adabiyotlardan iborat bo‘lib, ular ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy izlanishlarning o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga kelgan janr o‘quv-uslubiy janrdir. Ularga mansub matnlar ilmiy-nazariy tadqiqotlardan olingan natijalar ilmiy-uslubiy tadqiqotlar asosidagi o‘qish jarayoniga kiritilishi uchun mo‘ljallangandir. O‘quv-uslubiy adabiyotlari bosma – nashr qilingan va elektron adabiyotlar turlariga bo‘linadi. O‘quv-uslubiy adabiyotlarning eng keng qo‘llanadigan turlari darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-metodik adabiyotlar, lug‘atlar, mashq to‘plamlari, xrestomatiyalardir.

Ilmiy ish shunday bo‘lishi kerakki, unda aniq bir muammoga yoki muammoning bir qismiga yechim topilishi lozim. Ilmiy ish – mas‘uliyat. Unda aytilgan har bir hukmning qandaydir asosi bo‘lishi lozim. Hattoki Alisher Navoiy buyuk ijodkor desangiz ham buni asoslab berishingiz kerak. Ilmiy ish aynan shu jihati bilan boshqa ishlardan, matnlardan ajralib turadi. Hozir ilmiy maqola yoki dissertatsiyani balandparvoz jumlar bilan boyitish tendensiyasini shaxsan kuzatyapman, lekin buni ilmiylikka zarar yetkazuvchi omil deb bilaman. Ilmiy ishlar samarali bo‘lishi uchun har bitta qilinayotgan ishlar sifatli va fanda ma‘lum bir muammoni yechishga qaratilgan bo‘lishi va eng muhimi insoniyatga foydasi tegishi lozim. Sifatli va mukkammal, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadigan ilmiy ishlarni yaratish uchun esa har bir tadqiqotchi o‘ziga quyidagi savollarni berishi lozim:

1. Ushbu maqola fandagi kichik bo‘lsa-da biror bo‘shliqni to‘ldiradimi?
2. Men yozayotgan ilmiy ishda mendan avvalgi tadqiqotchilar yozmagan biror ilmiy yangilik mavjudmi?
3. Ushbu ilmiy ishni ertaga kimdir o‘qiydimi?

Agar ushbu savollarga «ha» degan javob ololsagina o'sha ishni boshlagani maqul, aksincha bo'lsa vaqtini behuda ketkizib o'tirmagani maquldir. Ilm bilan shug'ullanish ham xuddi ijod qilishga o'xshaydi. O'ylashimcha, shoirlar tug'ma iste'dod sohiblari bo'lgani kabi, ilm bilan shug'ullanuvchilarda ham qandaydir tug'ma qobiliyat bo'lmog'i lozim. Masalan, muammo ko'ra olish, his qilish, yechim izlashda sobitlik. Bundan tashqari ilm shunday narsaki, u sendan juda ham ko'p e'tibor va diqqatni talab qiladi. Agar unga keraklicha e'tibor qarata olmasang, boshlagan ishing yo chala tug'iladi, yo o'lik. **Eng asosiysi, ilmiy ish – bu har qanday sohaga yangi nafas, fakt, dalil, havo olib kira olishlik va aytilayotgan har bir fikr isboti bilan bo'lishi shart.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Chevalier S. Manual for writers of apers in English linguistics. Gunnel Tottie: University of Zurich, English Department, 2012.
2. Sodiqova Sh. Ilmiy ish asoslari. O'quv qo'llanma T., 2016.
3. Ne'matov H. Lingvistik tadqiqot metodikasi, metodologiyasi va metodlari.
4. O'quv qo'llanma - Buxoro, 2006.
5. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. O'quv qo'llanma - Toshkent: Akademnashr, 2010.